

26,5%) и наименьшее - на 7-й день после иммунизации ( $0,96\pm0,03$  г%); у телят 5-й группы наибольшее на 45-й день после иммунизации ( $1,50\pm0,06$  г% - увеличение на 72,4%), наименьшее - на 3-и сутки после иммунизации ( $0,85\pm0,03$  г%); у телят 6-й группы самое высокое количество альфа-глобулинов отмечено на 7-й день после иммунизации ( $1,4\pm0,05$  г% - на 22,8%) и самое низкое - на 60-й день после иммунизации ( $0,79\pm0,03$  г%).

Сыворотка крови телят, иммунизированных моновалентной живой вакциной из штамма *S. typhimurium*, отличается большим содержанием белковых фракций и иммуноглобулинов, нежели у телят, иммунизированных убитой вакциной против сальмонеллеза.

Содержание альфа-глобулины в сыворотке крови телят, иммунизированных бивалентной живой вакциной из штаммов *S. typhimurium* и *S. dublin*, превышает уровень этих показателей у телят, иммунизированных убитой вакциной.

### **Использованная литература**

1. Зароза В.Г. Профилактика и лечение желудочно-кишечных болезней новорожденных телят. М.: Агропромиздат, 1989. - С.57.
2. Сеитов З.С. Биохимия. Алматы: АгроУниверситет, 2000. - С. 25-30.
3. Антонов В.С., Кленина Н.В., Михайлова С.А. Динамика классов иммуноглобулинов и других сывороточных белков у крупного рогатого скота в онтогенезе // Проблемы ветеринарной иммунологии /Под ред. В.П.Урбана. М.: Агропромиздат, 1985. - С.215.
4. Жумашев Ж.Ж., Бабаев М.Б., Алимжанова Ш.С., Туганбекова М.А. Иммуноглобулины животных // Монография. Алматы, 1994. - С.3-16.
5. Емельяненко П.А. Иммунная система жвачных. // Пробл. вет. иммунол. /Под ред. В.П.Урбана. - М.: Агропромиздат, 1985. - С.215.
6. Жумашев Ж.Ж., Алимжанова Ш.С., Туганбекова М.А., Сеитов З.С., Турсынбаев К.Ш. Выделение, идентификация и количественное определение иммуноглобулинов в сыворотке крови овец // Методические рекомендации.- Алма-Ата, 1985. - С. 50.

## **QORAQOLPOG'ISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDA CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARIGA INNOVATSION YONDASHUV**

**Kalenderov A.K.**

Samarqand davlat veterinariya meditsinası, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

Chorva mollar tuyog'i sonini ko'paytirish va ulardan olinadigan mahsulot miqdori va sifatini yaxshilashdan asosiy maqsad xalqimizning chorva mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishga qaratilgandir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish to'g'risida chorvachilik sohasida islohatlarni amalga oshirish borasida Respublikamiz miqyosida ko'pgina ishlar qilinmoqda. Chorvachilik bilan shug'ullanuvchi maxsus

shirkat xo'jaliklari, fermer xo'jaliklari, korxonalarining yordamchi xo'jaliklari tashkil etilmoqda.

Bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan chorvachilik mahsulotlari aholining talabiga nisbatan ancha kamligi hech kimga sir emas. Ayniqsa chorva mollari soni keyingi yillarda q/x korxonalarida keskin kamayib ketdi, buning asosiy sabablaridan biri ozuqa bazasining deyarlik barcha xo'jaliklarida o'ta nochor ahvolga tushib qolganligidir.

Respublikamizda barcha toifadagi xo'jaliklarda 8 mln 510 ming qoramol mavjud, shundan sigirlar soni 3 mln 535 ming boshni tashqil etadi. Qo'y-echkilar soni 14 mln 438 ming bosh, otlar soni 180 ming, parrandalar 33 mln 25 ming, cho'chqalar soni 96 ming boshni tashkil etadi.

Respublikamiz bo'yicha har bir bosh sigirdan sog'ib olingan sut 705 kg, har 100 bosh sigirdan olingan buzoq esa 37 boshni, 1 tovuqdan olingan tuxum esa 118 donani tashkil etadi.

Bu ko'rsatkichlar hayvonlardagi mavjud imkoniyatlarning atigi 25-30% dan foydalani layotganini ko'rsatadi. Bunday holatga tushishni asosiy sabablaridan biri ham ozuqa bazasini etishmovchiligidir.

Hozirgi davrda chorvachilikni rivojlanishiga e'tibor bir muncha kuchaygan bo'lsada ozuqa bazasini mustahkamlashga bo'lgan e'tibor sustligicha qolmoqda. Ozuqa bazasini mustahkamlashda har 1 ga yerdan olinadigan hosildorlikni oshirish ozuqa uchun ekilgan o'simliklarni tarkibida yuqori darajada to'yimli modda to'plangan davrda urish va yig'ib olish, hosildorligi yuqori bo'lgan ozuqabop o'simlik turi va navlaridan foydalanish. Oraliq ekinlardan roj, raps, tretikali, perko singari o'simliklardan g'alladan bo'shagan maydonlardan makkajo'xori singari tez etiluvchan, serhosil o'simliklar topinambur singari tuganaklarda, tifon singari sovuqga bardoshli o'simliklardan foydalanish juda muhimdir.

Bizga ma'lumki chorvachilik sohasidagi har bir fanning vujudga kelishi va uning rivojlanishining takomillashtirilishi insonlar hayotining yaxshilanishiga qaratilgan bo'ladi. Bu asosan organizmda kechadigan barcha morfologik, fiziologik va bioximik jarayonlarning me'yorda bo'lishini ta'minlash, sanoatning chorva mahsulotlari xom ashyosiga bo'lgan talabini qondirishda namoyon bo'ladi.

Chorvachilikni rivojlantirish va olinadigan mahsulotlarning sifatini yaxshilashning asosiy masalalaridan biri bu sohaga reja asosida har bir sohaning tabiiy sog'lig'ini e'tiborga olgan holda yondashishni talab etadi, ya'ni tuproq, o'g'it, o'simlik, chorvachilik kishilar.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida tuproqshunoslik, o'simlikshunoslik va chorvachilik uzviy ravishda bog'liqdir. Tabiiy yaylovlarda va ekiladigan dalalarda ishlab chiqariladigan o'simliklar mahsulotlarining 75% to''ridan to'g'ri inson uchun ozuqa sifatida ishlatalishi mumkin emas. Bu mahsulotlarni faqatgina hayvonlarga ozuqa sifatida berib, hayvonlardan mahsulot olish yo'li bilangina foydalanish mumkin.

Adabiyotlarda berilgan ma'lumotlarga ko'ra hayvonlarga beriladigan ozuqa tarkibidagi ozuqa moddaning 40% va mineral moddalarning 70%, o'zlashtirilmaydi. Bu moddalar tezak shaklida tashqi muhitga qaytib tushadi, bundan yerdagi mikroorganizmlar foydalanib tuproq unumdarligini oshiradi. Chorvachilikda ishlab

chiqarilgan mahsulot tan narxining asosiy qismini ozuqa xarajati tashkil etadi, jumladan sut uchun 50-55%, qoramol go'sht uchun 65-70%, cho'chqa va parranda go'shti uchun esa 70-80%dir.

CH.Darvin o'z davrida ko'pgina kuzatish va tajribalarga asoslanib oziqlanish hayvon organizmida yuz beradigan funksional va morfologik o'zgarishlarning asosiy omili hisoblanadi, degan fikrni bildirgan edi. Bu fikr keyinchalik fiziologlar va zootexniklar tomonidan rivojlantirildi. Turli hildagi ozuqalarning ovqat hazm qilish organlarining faoliyatiga suyuqlik ishlab chiqarishiga , hazmlanishda ishtirok etuvchi fermentlarning faolligiga turlicha ta'sir etishi buyuk biolog olim, akademik I.P.Pavlov maktabi tomonidan chuqur va aniq isbotlangan edi. N.P.CHirvinskiy tomonidan o'tkazilgan tajribalar natijasi ham ozuqa turining hayvon organizmida ma'lum morfologik o'zgarishlarga sabab bo'lishini ko'rsatadi, qo'zilar onalaridan ajralganidan keyin sut davridan so'ng faqat hajmli ozuqalar bilan (ko'k o't) oziqlantirilganda katta yoshga etganda ichagining uzunligi gavda uzunligiga nisbatan 44-51 marotaba, faqatgina konsentrat ozuqalar bilan oziqlangani esa 33-38 marotaba uzaygalagini aniqlagan. Oshqozon hajmi esa xar 1 kg tirik vazniga nisbatan 1 chi guruhda 800-900, ikkinchi guruhda esa 270 ml bo'lganligi ko'rsatilgan. Oziqlantirish natijasida qon aylanish, nafas olish funksiyasi va gavda tuzilishi ham o'zgaradi. Ratsionda hajmli ozuqalarni ko'p qabul qilgan buqachalarning ko'krak chuqurligi, aylanasi, gavda uzunligi, maklakning eni, hajmi kam ozuqalarni qabul qilganlarga nisbatan ancha ziyod bo'lganligi kuzatilgan. Oziqlantirish organizmda almashinuv jarayonlarida, sog'lig'ini asrashda, mahsulot olishda hal qiluvchi ro'lni o'yndi.

Etarli darajada oziqlantirmaslik natijasida turli xil ichki yuqumsiz kasalliklar - gipovitaminoz, suyak kasalliklari va boshqalar yuz berib hayvonlar mahsuldorligini keskin kamaytirishga va xo'jalikda o'sha hayvondan foydalanish muddati qisqartirilishiga olib keladi.

Oziqlantirish-hayvonning o'sish tezligini, tirik vazni oshishini va mahsuldorlik darajasini belgilaydi. To'liq qiymatli oziqlantirmaslikda hayvon tez etilmaydi, gavdasi yassi, oyoqlari uzun, yelka chiziqlari noto'g'ri shakllanadi. Shuning uchun akademik M.F.Ivanov "Ozuqa va oziqlantirish hayvonning zoti va kelib chiqishiga nisbatan ko'proq ta'sir koqrusatadi" degan fikrga keladi. Haqiqatdan ham oziqlantirish darajasi sermahsul poda guruh va zotlarni yaratishda hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- [1] Калашников А.П. и др. Научные основы полноценного кормления сельскохозяйственных животных М. 2003.
- [2] Durst L., Vittman M. Qishloq xo'jaligi hayvonlarni oziqlantirish. Urganch 2010.
- [3] B.Yahyayev, Q. Haydarov. Ozuqalarning zootexniyaviy tahlili. Samarqand 2012. (uslubiy qo'llanma).
- [4] Б.С.Казакбаев ,А.Ж.Жанабаев Конституция типи хар хил каракул куйларининг тирик вазни курсаткишлари chorvachilik va naslchilik ishi jurnali. 2020. 33-35